

MADANIY-AXLOQIY MAKON SHAKLLANISHIDA AQL VA AXLOQIY ONGNING BA'ZI JIHATLARI

Ko'chimova Feruza Xolmurod qizi
Qarshi davlat universiteti talabasi,
www.feruzakuchimova@gmail.com



Inson bioijtimoiy mavjudot sifatida ayni bir vaqtda ham genetik, ham ijtimoiy dasturni amalga oshiradi: o‘z ajdodlaridan turli layoqat, qobiliyat, iste’dod, xususiyat, xislatlarni hamda bilim, tajriba va madaniyatni meros qilib oladi.

Uzoq yillar davomida insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan muhim sifat aqldir deb kelindi. Insonga berilgan biologik nom «hamo sapiens» (xomo sapiens lotincha «aqlli odam») da ham bu sifat o‘z ifodasini topgan edi. In’kosning oliy shakli sifatida ongning paydo bo‘lishi «aqlli odam»ning shakllanish jarayoni bilan bog‘lanadi.

Aql-insonning fikrlash qobiliyatidir. Boshqa mavjudotlar bunday qobiliyatga ega emasdir. Aql tufayli insoniyat yuksak madaniyat, ko‘rkam shaharlar, ulkan inshootlar, zamonaviy texnikalar yaratibgina qolmadi, balki ommaviy qirg‘in qurollarini, atom va vodorod bombalarini, sayyoraviy urush qurollarini ham yaratdi: jahon urushlari va ijtimoiy revolutsiyalar ham aqlli insonlar tomonidan amalga- oshirildi. Tabiatni xalokat yoqasiga olib kelgan ham aqlli insonlardir. Binobarin, aql tufayli insoniyat hayvonot olamidan ilgarilab ketishi emas, balki yuz tuban quyiga ketishi ham mumkin ekan. Bunga XX asr oxirlarida butun insoniyat amin bo‘ldi. Ibn Sino, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi”¹, – deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo‘ladi. Yakka holda hech kim bunnig uddasidan chiqa olmaydi. “Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o‘z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma’naviy darajaga ko‘tarilishi mumkin”²

“Aql-farosatdan mahrum holda baxtli yashagandan, aql-farosat bilan badbaxt bo‘lgan a’loroqdir”, – degan edi Epikur. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir xatti-harakat, har bir

¹ Ибн Сина. Данишнамэ. -Душанбе.: 1957.-С..59

² Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – В.69



qilmishning ibtido nuqtasi. Umuman inson va jamiyat axloqiy hayotida tanlovning ahamiyati beqiyos. Ana shunday tanlov bevosita aqlga bo‘ysundirilishi axloqiy ongni yuzaga chiqaradi.

Oadatda “aql” tushunchasi falsafiy adabiyotlarimizda “ong” istilohi qo’llab kelinadi: ilmiy ong, siyosiy ong, estetik ong va h.k. Bilish bilan bog’liq tahliliy faoliyatni biz anglash deb ataymiz va shu anglashning darajasiga qarab, kishilar ongingin yuksakligi yoki pastligi haqida fikr yuritamiz. Zero, ong insonning o’ziga o‘xshash yakka yaxlitlik, uning faoliyati – anglash esa har xil va ko‘pqirralidir. Axloqiy anglashda esa bir inson ongi bitta hodisani o’nlab, yuzlab rakursda mushohada qilishi va anglashi mumkin. Ongning ana shunday faoliyat turlaridan biri axloqiy anglashdir.

Axloqiy olam taraqqiyoti axloqiy ongning yuksalishi bilan belgilanadi. “Insonning har qanday xatti-harakati ong orqali bajariladi, ammo jamiyat ularni saralab, manfaatdor bo‘lganlarinigina yuzaga chiqaradi. Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundadir. Axloqiy ongda vogelik qonunlar sifatida emas, balki insoniy xatti-harakatlarga qo‘yilgan ijtimoiy tartib, talablar, normalar shaklida qayd etiladi. Vaholanki, turizm servis sohasida ham ijtimoiy tartib, talablar, normalar muhim axamiyat kasb etadi. Aks holda bunday tartib, qoidalarga rioya etilmas ekan axloqiy jihatga putur yetkaziladi va iqtisodiy tomonga ham zarar keltiriladi. Shu sababli axloqiy ong bir tomondan jamiyat yoki guruhning talablari, normativlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan shu talablarni anglashning individual, shaxsiy shakli va ularni amalda namoyon qilishdir.”³ Axloqiy ongda normalardan tashqari odatlar, hissiyotlar ham chambarchas bog’lanib ketadi. Aql hissiyotlarga ma’lum ijtimoiy yo‘nalish beradi, emotsional xissiyotlar esa ongda o‘zining aqliy asosini topadi. Insoniy his-tuyg‘ularsiz haqiqatni ochish ham mumkin emas.⁴ Demak, tuyg‘ularsiz haqiqiy axloqiy ulug‘vorlik bo‘lmaydi ham. Lekin bu ham xulqning doimiy sababchisi bo‘la olmaydi.

Komil inson faoliyatida bilim va yetuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan

³Hoshimovich, Sunatov Dilshod. "Moral consciousness, moral practice, moral relations as elements of morality." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1039-1044.

⁴ Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERRELATIONSHIP OF CULTURAL SPACE AND PARADIGMS OF MORAL CONSCIOUSNESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 218–226.



bog‘langandir: bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, ma’naviyat esa odamni yaxshi fazilatlarga davat etadi. Chunki, kamolotga erishish odamdan o‘zining so‘nggi maqsadi – baxtga yetish, baxtni qo‘lga kiritish uchun foydali narsalarni bilishni talab qiladi. Bu foydali narsalar – turli ne’matlar, fazilatlar va yaxshi ishlardan iboratdir. Kamol topish jarayonida odam narsalarni bir-biridan ajratishni, yaxshilik bilan yomonlikni, kamolotga erishish yo‘lidagi turli hisoblarni – yovuzlikni, reallikni va illatli ishlarni bartaraf etish vositalariga ega bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviy yuksalish, axloqiy – bu amaliy donishmandlik yo‘lidir, unda narsalarning mohiyatini, fazilatlarni bilish va ularga erishishning amaliy vositalarini to‘g‘ri anglash talab qilinadi. Shu yo‘l bilan inson ruhini sog‘lomlashtirish, uni turli kasalliklar – illatlardan, razolatdan xalos etish axloq ilming, amaliy donishmandlikning bosh vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, Vatanimiz yigit-qizlarini zamon talablariga javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Chunki har qanday mamlakatning qudrati fuqarolarning aql va salohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonning bir jihatni ta’lim sifati va samaradorligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi jihatni tayyorlanayotgan kadrlarning ijodkorligi, axloqiy yetukligi va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishiga bog‘liq. “Aqliy tarbiya- shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya. bilimlarni to‘plash, biror narsani taxlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi intellektual ko‘nikmalar, ya’ni har qanday fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan umumiyligi o‘quv ko‘nikmalari - o‘qish, tinglash, o‘z fikrini og‘zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishslash, mustaqil ishslash malakalarini, shuningdek biror fanni egallah bo‘yicha zarur bo‘lgan maxsus ko‘nikmalar (chizma, xaritalarni uqiy bilish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallahdan iborat”⁵.

Ma’lumki, intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatları tizimidän iborat. Yoshlar sohalararo yangiliklarni tezda anglab, tushunib, ularni fahmiga yeta olar ekan, demak ularda intellekt taraqqiy etgan

⁵ O‘zbekiston Milliy insklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, Tosh- 2000, 553 bet.

bo‘ladi. Bugungi kundagi ilmiy-texnika inqilobi hosilasi bo‘lmish axborotlar, ya’ni g‘oyalar to‘qnashuvi natijasi o‘laroq, xalqimiz tafakkurida yuz beruvchi turli xil o‘zgarishlarning keskin salbiy oqibatlari, ya’ni xilma-xil mafkuraviy tahdidlar va buning natijasida hosil bo‘luvchi tafakkur inersiyasi va marginalizmidan himoyalash, qolaversa, shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini muqobil yuksaltirishning muhim usul va vositalarini ishlab chiqish, o‘ziga xos mexanizmlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Mustaqillik yillarda o‘zbek xalqining ilg‘or axloqiy qadriyatlarini tiklash va uni mazmunan boyitish, ilg‘or an'analar asosida zamon kishisining fe'l-atvoriga yaqinlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa, mamlakatimiz istiqboli va millatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, ularning intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish ham bevosita axloqiy munosabatlarni takomillashtirishni taqazo etadi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev hozirgi zamonda modernizatsiya va yangilanish borasida mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘yan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini ekanligini ko‘p bora ta’kidlab o‘tadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida bugun shaxs va jamiyat, ayniqsa yoshlarning intellektual madaniyatini yuksaltirishga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ham bejiz emas. Negaki, bugungi kun muammolaridan biri hisoblangan xalqimizning, asosan shaxsnинг intellektual madaniyat darajasi bilan jamiyat intellektual madaniyatini o‘zaro amal qilish doirasi, bir-biri bilan ta’sirlashuv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy va madaniy jihatdan tadqiq etish respublikamizda mutaxassis-kadrlarni zamonaviy ilm-fanning ilg‘or yutuqlarini amaliy hayotga qo‘llay oladigan yuksak ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ziyoli inson sifatida tarbiyalash jarayonida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato-kamchiliklarni oldini olishga yordam beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda sog‘lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san’at va sport bo‘yicha salohiyatini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish borasida



ham yangi tizim yaratamiz. Takror va takror aytaman: Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”⁶, – deb ta’kidlagan.

O‘zbek xalqi farovon turmush va yuksak taraqqiy etgan fuqarolik jamiyati sari dadil odim tashlab borar ekan bu borada shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini oshira borish hamda undan oqilona foydalanish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Mustaqillik davrida mazkur masalani ijobiy xal etish yuzasidan juda ko‘plab an’anaviy-ma’rifiy tadbirlar va loyihalar hayotga tadbiq etildi. Bundan tashqari xalq ta’limida va oliv ta’limda bir qancha keskin o‘zgarishlar xamda dasturlar amalga oshirildi. Milliy g’oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyati bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim tarbiya ishlarining markaziga qo’yish, ularni yangi bosqichga ko’tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Adabiyotlar

1. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 69.
2. <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
3. Hoshimovich, Sunatov Dilshod. "Scientific analysis of moral consciousness." *Евразийский Союз Ученых* 7-3 (64) (2019): 52-54.
4. Hoshimovich, Sunatov Dilshod. "Moral consciousness, moral practice, moral relations as elements of morality." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.2 (2021): 1039-1044.
5. Ибн Сина. Данишнамэ. -Душанбе.: 1957.-C. 59.
6. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2024). MILLIY MADANIY MAKONDA AXLOQIY ONGGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR. *Proceedings of International Educators Conference*, 3(1), 390–398.
7. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2022). Influence on Moral Consciousness in the National Cultural Space Factors. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 13, 31–34.

⁶ <https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences
Hosted online from Toronto, Canada.
Date: 5th April, 2024
ISSN: 2835-5326 **Website:** econferenceseries.com

8. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). FEATURES OF THE CULTURAL SPACE AFFECTING MORALITY. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(10), 1–6.
9. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERRELATIONSHIP OF CULTURAL SPACE AND PARADIGMS OF MORAL CONSCIOUSNESS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 218–226.
10. Sunatov Dilshod Hoshimovich. (2023). INTERETHNIC COMMUNICATION-A FACTOR IN THE STABILITY OF CULTURAL SPACE. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 19, 1–5.
11. O'zbekiston Milliy insklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, Tosh- 2000, 553 bet.